



2018 yilning yanvar-avgust oylarida QURILISH ISHLARI

Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

1741,4 mlrd. so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi –

6,0 %

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi –


53,5 %

Norasmiy sektor ulushi


– **40,5 %**

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Farg'ona viloyatida jami **1741,4** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,6 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **105,0** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **6,0 %** hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **76,8 %** ni tashkil etdi. Kichik korhona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **53,5 %** i yoki **931,6** mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **113,7 %** tashkil etdi, norasmiy sektorda esa **40,5 %** yoki **704,7** mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **106,4 %** ni tashkili etdi.



Yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **80,1 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **121,3 %** ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jami hajmning **6,4 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **80,8 %** ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa jami hajmning **13,5 %** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **133,3 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi *(jami hajmdagi ulushi %)*




Yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (mlrd.so'm)



Qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (%)


o'tgan yilga nisbatan foizda %



Hududlar kesimida qurilish ishlari


(mlrd.so 'mda)

■ 2018 yanvar-avgust




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori hissasi Farg'ona shahrida kuzatildi. Ushbu hududda ob'ektlar o'tgan yilga nisbatan ko'payganligi sababli ushbu hududda qurilish ishlari hajmi **350,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qo'qon shahrida esa **176,4** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori bajargan shahar tumanlar jumladan: Oltiariq tumanida **154,8 %** ni Qo'shtepa tumanida **145,1 %** ni Buvayda tumanida **132,1 %** ni **128,1 %** ni Farg'ona tumanida **130,1 %** ni Toshloq tumanida **128,1 %** ni hamda Furqat tumanlarida **126,4 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmini keskin oshishiga jismoniy shaxslar tomonidan noturar (maishiy, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqalar) ob'ektlar qurilishini ko'payganligi sabab bo'ldi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining **6,0 %** i yirik pudrat tashkilotlari hissasiga tog'ri kelmoqda. Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan **28,6 %** ni tashkil etdi.

Hududda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining **53,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga qurilish ishlari hajmining **40,5 %** i to'g'ri keladi.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov

Aloqa telefoni: (0373)241-72-75